



O'QUVCHILARGA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING O'QITISHNING TA'LIMIY XUSUSIYATLARI

Jumayeva Zilola Qo'ychiyevna

Qashqadaryo viloyati Koson tuman 81- maktabning

ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'limning barcha bosqichlarida ona tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iboratdir. Ona tili darslarini har bir mavzu doirasida o'zaro turdosh va boshqa fanlar bilan bog'langan holda tashkil etish, o'quv jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Ona tili kommunikativ kompetensiyasi – ona tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyati. Lingvistik kompetensiya - til sathlari haqida bilimlar va tilning ifoda vositalarini egallashni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ kompetensiya, interfaol usullar, "rekord" usuli, ilg'or pedagogik texnologiya.

Kirish. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi jahonning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ta'lim sohasida o'zaro hamkorlikni o'rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa davr ichida ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo'ldik. Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy



mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytgach mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o'qituvchi, boshqariluvchi -o'quvchifaoliyati birgalikda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi Farmoniga muvofiq, Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda bir qancha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Misol tariqasida shuni ta'kidlash joizki, 2030- yilga borib o'quvchilar bilimni baholash bo'yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo'yilgan. Buning uchun esa pedagoglar, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga yuklatilgan vazifalar talaygina: o'zbek tilining nufuzi, jahondagi o'rni, boshqa tillar bilan bema'lol bellasha oladigan qirralarini ko'rsata olishi asosiy vazifadir. Avvalo, o'quvchini ona tili faniga qiziqtirish, unda fanga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, ona tilining biz bilmagan sir - sinoatlarini ochishga o'rgatish va, eng muhimi, amalda bajarish kerak. Shu bilan birga, Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asari va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" dan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili fanini o'qitishda turli zamonaviy



metod va usullardan foydalanish, foydalanilayotgan metod va usullarning o'quvchilarga qay darajada samara berayotganini aniqlash hozirgi kunda muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda har bir pedagogning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalardan biri har bir o'quvchiga puxta va chuqur bilim berish, o'z tilimizga nisbatan qiziqishni oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat. Bu hol davr talabiga mos holda o'qitish metodlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. O'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish o'quvchilarning ongliligi va faolligini ta'minlash bilan uzviy bog'liq.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan qarorlar ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilayapti. Keng qamrovli islohotlarta'lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo etmoqda.

Bunda interfaol usullarning ahamiyati katta. Ayniqsa, iqtidorli o'quvchilar mavzuni oson o'zlashtirib, darsda bo'sh qolmasligi uchun o'qituvchida hamisha qo'shimcha materiallar bo'lishi lozim. Quyida shulardan bir nechtasini taqdim etishni joiz topdim.

“Teleko'rsatuv” usuli. Bunday shaklda dars rejasini teleko'rsatuvlar (masalan, “TV-Mehmon”, “Ko'rsatuvlar tartibi”, “Dil nomalari”, “Mumtoz musiqa”, “O'yla! Izla! Top!”) nomi ko'rsatuvlar asosida tashkil etilishi mumkin.

“Rekord” usuli. Bu usulni qo'llash orqali dars jarayonida o'tilayotgan, mavzu bo'yicha rekord darajadagi noyob ma'lumotlarni juda ko'p miqdorda berish nazarda tutiladi.



Bunda qaysi o'quvchi mavzu bo'yicha ko'p ma'lumotga ega bo'lsa, shu o'quvchi rekord natijaga erishadi.

Biz ham pedagoglarga innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish bo'yicha o'z tavsiyalarimni aytib o'tmoqchimiz. Pedagoglar ta'limda yuqori samaradorlikka erishish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash printsiplarini bilishi; -ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi; - o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullarini egallashi; - ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, namunaviy-imitatsiya o'quv-mashg'ulotlarini o'tishi.

«Rasmlarni joylashtirish» metodi. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish asosida faoliyat olib borishda «Rasmlarni joylashtir» nomli interfaol metoddan foydalanish o'zining ijobiy natijasini beradi. «Rasmlarni joylashtir» nomli metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi. Juftliklar o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan tayyorlangan hamda har bir kartochkaning bir tomoniga mavzuga organlar, qismlar tarkibiy qismlarini anglatuvchi so'zlar yozilgan kartochkalar to'plami beriladi. Guruh o'quvchilarining faoliyat yuritishlari uchun shunday ko'rsatmalar beriladi. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilimlaringizga tayanib taqdim etilgan kartochkalarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiring. Kartochkalarni orqa tomonini o'chiring va topshiriqni to'g'ri bajarganligingizni tekshiring.



(agar vazifa bajarilgan bo'lsa, har bir kartochkaning orqa tomoniga yozilgan xatlar yordamida hosil bo'lgan so'z o'qiladi). Topshiriqning bajarilish holatiga muvofiq o'quvchilar «**Nazorat varag'i**»ning birinchi pog'onasiga shaxsiy faoliyatlari uchun baho (ball tizimida) qo'yadilar.

O'qitishning, Rolli –sahnalashtirish usuli. Bu usul orqali fan asoslari chuqur egallanadi. O'quvchilari ma'lum jarayon yoki hodisaga doir amaliy hatti-harakatlarni bajaradi.

“Yangilik kashf etish orqali o'rganish” texnologiyasi. Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbqiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

Asosiy tamoyillari quyidagicha:

O'rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.

Oldindan aniqlangan va sog'lom tarzda o'rganishga asoslangan natijalar. Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.

“Quruvchi” usuli. Har bir guruh o'z orasidan quruvchilarni tayinlaydi, ular gaplarni tartib bilan quradi. Yosh avlodni aqliy jihatdan, barkamol inson qilib tarbiyalashda uning o'rni beqiyos.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyatida foydalanish maqsadida o'zi tayyorlagan yoki to'plagan hamda tizimga keltirgan metodik materiallari, ilg'or ish tajribalar, metodik tavsiyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Darslarni qiziqarli va samarali tashkil etish bilan birgalikda, o'z hamkasblarining ilg'or ish tajribalaridan xabardor bo'lish hamda o'z tajribasini ommalashtirish ham sifatli ta'limni jivojlantirish imkonini beradi.

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNI VA O'ZBEK TILINING NUFUZI

Ona tili fanini o'qitishdan maqsad - o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish



ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Afsuski, hozirgi kunda o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati, adabiy til me'yoriga amal qilish va, eng asosiysi, fanga bo'lgan qiziqish susayib bormoqda hamda buni inkor qilib bo'lmaydi. Oxirgi yillarda ingliz, rus tillarini o'rganishga bo'lgan talab juda kuchli, bu, albatta, tobora jadal rivojlanib borayotgan jamiyat bilan bog'liq. Til bilgan yaxshi, ammo o'z ona tilisini mukammal bilmay turib boshqa tillarga mehr bilan qarash o'zbek tilining nufuzini yanada pasayishiga olib kelyapti, nazarimda.

O'quvchini fanga qiziqtirish, avvalo, pedagogning bilimi, malakasi bo'lsa, undan keyin dars jarayonida qo'llay oladigan zamonaviy metod va innavatsion texnologiyalardir. Ona tili fani o'quvchi-yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etish bilan birga ularning nutq boyligini ta'minlashda ham muhim o'rin egallaydi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda maktablarda ona tili va adabiyot fanining chuqurlashtirib o'tilishini, sifatli dars mashg'ulotlari olib borilishini, fanlararo bog'lanishlarni kengroq ta'minlashga alohida ahamiyat berilishini talab etmoqda. Shunday ekan maktablarda o'quvchi-yoshlar qiziqishi, fanga moyilligi asosiy masaladir. Kelajak yoshlarimiz qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va amalaiyotga moslashtirish har bir pedagogning oldidagi mas'uliyatli vazifadir. Bilim beramiz, o'quvchi test ishlay oladi va nazariy savollarga ham javob beradi, ammo amaliy bajarib berishga kelganida hatto texnik qoidalarini ham nazariy bayon etadi, amaliy bajara olmasligi isbotlangan. Ayniqsa, ona tili darsligidagi keyingi yillar bir qancha tanqidga uchrab tog'irlanib borilayotgan kamchiliklar o'quvchining chalg'ishiga olib kelmoqda. Ingliz tilidagi barcha darslik-qo'llanmalar esa suratlar, turli usul va metodlar bilan til o'rganishning yengil usuli orqali o'quvchini o'ziga jalb etadi.

Ammo aksariyat o'quvchilar bunday so'zlarni nutqini o'stirish maqsadida emas, test jarayoniga tayyorlanish uchungina ko'r - ko'rona yodlab olmoqda, xolos. O'quvchilar nutqiga e'tibor bersak, ularda ko'p hollarda parazit so'zlarning



ishlatilishini kuzatish mumkin, ya'ni haligi, nima edi, ok, good bay... va hokazo kabi. Darslikda keltirilayotgan ibora - yu nutqqa oid turli so'zlarning gap tarkibida qanday holda, qay maqsadda ishlatilishini tasavvur ham qila olmaydi. O'quvchi nutqini o'stiradigan holatlarning birinchisi, so'z boyligining ko'pligi bo'lsa, keyingisi shu so'zlarni gap tarkibida o'z o'rnida qo'llab ravon, to'g'ri nutqni shakllantirishdir. Masalan, ona tili darslarida turli metodlardan: "Aqliy hujum", "FSMU", "Baliq skeleti", "Sarlavha bizdan, matni sizdan" va hokazolardan foydalaniladi hamda ayrim hollarda kutilgan natijaga erishish mumkin. Bu metodlarning ayrimlari qo'llanilganda bir muddat o'quvchi o'ylashi uchun vaqt ham ajratiladi, ammo bu usullarning bari o'quvchi nutqini to'la shakllantirib bera olmasligi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu metodlar eskirib o'rniga yangi - yangi metodlar paydo bo'lib boraveradi. O'quvchiga monitor ekranlarida yoki ko'rgazma sifatida (albatta, rivojlanib borayotgan mamlakatimiz maktablarida yaqin kelajakda har bir sinf xonalari zamonaviy jihozlanishiga, har bir sinf xonasida kompyuter, elektron doska bo'lishiga ishonamiz) biror bir surat ko'rsatilib o'ylash uchun vaqt ajratilmay surat asosida matn tuzilish, tuzayotgan matnida: har bir gap tarkibidagi so'zlar takroriga yo'l qo'ymaslik, faqat sinonimlaridan foydalanish, gaplarni tutilmay ravon tarzda tuzish, faqat o'zbek tilidan foydalanish shart qilib qo'yiladi. Bu holat bir martada natija bermasligi mumkin, ammo har darsda foydalanilsa, o'quvchi nutqida ravonlik, o'sish kuzatilishi aniq. Undan tashqari o'quvchining eshitib tushunishini rivojlantirish uchun biror o'zlari adabiyot darslarida o'qigan badiiy asardan parcha eshittirilib, parchani o'quvchidan xuddi o'ziday so'zlab berish talab qilinsa, o'quvchining nutqini o'stirishda kutilgan natijaga erishish mumkin. O'quvchilarni bu metodlarda qiziqish uyg'otish uchun usullarni "O'ylamay so'yla", "Eshitganimday gapiraman" deb nomlash mumkin.

Imkon qadar ta'limga eng so'nggi rusmdagi kompyuter jihozlari, maxsus sinfxonalar, uskunalari (plakatlar, elektron darsliklar virtual xona), zaruriy o'quv vositalari va o'z kasbini



sevadigan fidoiy kadrlarni jalb etish hamda amaliy mashg'ulotlar uchun sinflar kesmida 15 tadan oshmagan holda guruhlariga bo'lib dars o'tishni va dars soatlarini nazariy dars soatlaridan alohida soatlarga ajratgan holda o'tilishini tavsiya qilaman, chunki o'quvchi mustaqil xulosalash, amaliy bajarib ko'rish va hayotga tatbiq etish uchun bor bilimni amaliyotga to'liq moslashtira olishi uchun vaqt kamdek go'yo. 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakillantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga yangi tizim asosida yondashish bo'yicha beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu yangi innovatsiya esa barcha sohalar sigari ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ta'limda maktab tizimini rivojlantirish biz uchun buyuk maqsadga aylanishi zarur.

Xulosa. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili, uning umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'qitilishi davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko'ra to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarni singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'alarimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil



Respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi o'ta muhim vazifa bo'lib turgan bir sharoitda bu fanning o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda ona tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan vazifalaridan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarini barcha sohalarda bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab turgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar, voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'qul qiladilar.

Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar o'rtasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. SHuning uchun avvalo, har bir kishi undan fodalanishni bilishi va avvalo uni egallab olishi zarur. Tilni o'rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalarni o'zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani bolaga tilni o'rgatish bilan birga uning serqirra imkoniyatlarini nutqda foydalanish me'yorlarini ham o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xadmjimusaeva N. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida innovatsion usullardan foydalanish
2. Maxkamov F., Turdiyev Sh., Najmiddinov D. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
3. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'qitishdan tarqatma materiallar. — T.: «O'qituvchi», 1993.
4. Roziqov O.R. O'zbek tilidan dars tiplari. — T.: 1976



5. Shayxislamov, N. Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar, 2020. 71-73 b.
6. Qurbonova, M. Mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha etakchi tasniflar bo'yicha o'quv musobaqalarini takomillashtirish usullari. Ekonomika va sotsium, 2020. 240-244 b.
7. Qurbonova, M. F. Yosh ijodkor tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari. Xalq ta'limi. 2020
8. Azizxodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent., 2000.
9. Saidaxmedov N.S. 2003. Yangi pedagogik texnologiyalar -Toshkent: Moliya nashr.
10. N. Mahmudov, A. Nurmonova, A. Sobirov, D. Nabiyeva. 6-sinf uchun darslik "Tasvir" Toshkent 2017
11. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida ijodkor tarjimaiholini o'rgatish xususida. Science and Education, 1(Special Issue 2).